


Toshkent shahrida umumiy o'rta ta'lim tizimi

(2019/2020 o'quv yili boshiga)

Umumiy o'rta ta'lim tizimi, boshlang'ich (I - IV sinflar), tayanch o'rta (V-IX sinflar) hamda umumiy o'rta ta'lim (X-XI sinflar) bosqichlaridan iborat bo'lib, kunduzgi ta'lim shaklida faoliyat yuritadi.

Prezidentimizning tashabbuslari bilan ko'plab ota-onalar, pedagoglar, yoshlar hamda keng jamoatchilik takliflarini o'rgangan holda, yurtimizda 11 yillik o'rta ta'lim tizimi qayta tiklandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq 2018/2019 o'quv yilidan boshlab majburiy umumiy o'rta ta'lim tizimi, uzluksiz ravishda 11 yillik ta'lim negizida amalga oshirilmoqda. Toshkent shahrida 2019/2020 o'quv yili boshiga jami umumta'lim muassasalari soni 355 tani tashkil etdi va ulardan 31 tasi xususiy mulkchilik shaklidagi umumta'lim muassasalari hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining hududlar Kesimida taqsimlanishi, birlikda



Umumta'lim muassasalari soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10 taga ko'paydi.



Umumta'lim muassasalarining turlariga ko'ra taqsimlanishi, birlik

Umumta'lim muassasalari soni jami 355 ta, ulardan:




337 ta umumiy o'rta

2 ta boshlang'ich

16 ta boshqalar

Umumta'lim muassasalari uch turga bo'linadi: bular boshlang'ich, umumiy o'rta va boshqalar hisoblanadi. 2019/2020 o'quv yili boshiga kelib umumta'lim muassasalarining 337 tasini umumiy o'rta ta'lim maktablari, 2 tasini boshlang'ich maktablar va 16 tasini boshqa muassasalar tashkil etdi. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jami -455290 nafar, boshlang'ich muassasalarda -150 nafar va boshqa muassasalarda -4585 nafar o'quvchilar tahsil olmoqda.

Umumta'lim muassasalarini hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



Umumta'lim muassasalarida sinflar bo'yicha o'quvchilar soni, kishi


(2019/2020 o'quv yili boshiga)

	O'quvchilar soni jami	shundan:										
		1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf	5-sinf	6-sinf	7-sinf	8-sinf	9-sinf	10-sinf	11-sinf
Toshkent sh.	458800	46642	47134	46534	49629	47676	44158	41132	38615	37476	30114	29690
<i>shu jumladan tumanlar:</i>												
Uchtepa	52481	5302	5293	5135	5579	5372	4987	4693	4369	4263	3501	1668
Bektemir	9344	896	903	957	1061	963	923	825	799	774	634	609
Yunusobod	61916	6209	6562	6227	6801	6404	6091	5611	5224	5031	3855	3901
Mirzo Ulug'bek	54780	5394	5336	5594	5810	5697	5124	5132	4885	4696	3611	3531
Mirobod	28873	2770	2934	3084	3209	3039	2825	2585	2416	2278	1848	1885
Shayxontohur	43122	4524	4172	4313	4841	4530	3881	3638	3719	3586	2706	3212
Olmazor	54122	5714	5687	5561	5720	5732	5390	4912	4628	4590	3493	3455
Sirg'ali	43625	4611	4659	4412	4860	4551	4206	3828	3451	3481	2806	2760
Yakkasaroy	18995	1975	1996	1782	1969	2048	1881	1692	1573	1562	1345	1172
Yashnobod	41817	4312	4335	4356	4516	4349	4118	3734	3451	3303	2681	2662
Chilonzor	48958	4935	5257	5113	5263	4991	4732	4475	4130	3912	3148	3002



2019/2020 o'quv yili boshiga, umumta'lim muassasalarining birinchi sinfiga qabul qilingan o'quvchilar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega tumanlar Yunusobod, M.Ulug'bek va Olmazorda qayd etilgan bo'lsa, eng kam ko'rsatkich Yakkasaroy va Bektemir tumanlarida kuzatilgan.

Umumta'lim muassasalari mashg'ulotlarining smenaliligi¹⁾




2019/2020 o'quv yili boshiga, barcha ta'lim muassasalaridan bir smenada ta'lim yuritiladiganlari -96 ta (28,3 %), ikki smenada -237 ta (71,1 %), uch smenada -2 ta (0,6 %) ni tashkil etadi. Ta'kidlanganidek, bir smenada -307,2 ming kishi (67,5%), ikki smenada -146,9 (32,2%) ming kishi, uch smenada -1,2 ming kishi (0,3%) tahsil olmoqda.

Umumta'lim muassasalari mashg'ulotlarining smenaliligi hududlar kesimida, birlikda¹⁾

	Toshkent sh.	Uchtepa	Bektemir	Yunusobod	Mirzo Ulug'bek	Mirobod	Shayhontohur	Olmazor	Sirg'ali	Yakkasroy	Yashnobod	Chilonzor
Jami muassasalar, birlik	339	36	5	20	42	26	37	35	41	49	19	29
<i>ulardan mashg'ulot olib boradigan:</i>												
bir smenada	96	14	-	7	13	5	9	8	19	10	9	2
ikki smenada	237	21	5	13	28	21	28	26	22	36	10	27
uch smenada	2	1	-	-	-	-	-	1	-	-	-	-

¹⁾ Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktablaridan tashqari, vaqtincha ishlamaydigan maktablarni qo'shgan holda

Umumta'lim muassasalarida o'qituvchilarning ma'lumoti bo'yicha taqsimlanishi²⁾, % da



	Oliy ma'lumotli o'qituvchilarning jami o'qituvchilar sonidagi ulushi, % da	O'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchilarning jami o'qituvchilar sonidagi ulushi, % da
Toshkent sh.	97,3	2,7
<i>shu jumladan tumanlar:</i>		
Uchtepa	97,8	2,2
Bektemir	96,5	3,5
Yunusobod	98,4	1,6
Mirzo Ulug'bek	96,2	3,8
Mirobod	97,7	2,3
Shayxontohur	98,6	1,4
Olmazor	96,7	3,3
Sirg'ali	96,5	3,5
Yakkasaroy	96,9	3,1
Yashnobod	96,1	3,9
Chilonzor	97,9	2,1

2019/2020 o'quv yili boshiga jami o'qituvchilar -24,7 ming nafarni tashkil etib, ulardan -21,5 ming nafarini ayollar tashkil etadi. Toshkent shahrida bitta o'qituvchiga o'rtacha -18 nafar o'quvchi to'g'ri keladi.



²⁾ o'rindoshlarsiz

Umumta'lim muassasalarida o'quvchilar sonining yosh bo'yicha taqsimlanishi, kishi (2019/2020 o'quv yili boshiga)


	O'quvchilar soni jami	Shu jumladan:										
		6 yosh	7 yosh	8 yosh	9 yosh	10 yosh	11 yosh	12 yosh	13 yosh	14 yosh	15 yosh	16 yosh va undan katta
Toshkent sh.	458800	11675	46278	46822	47116	48921	46836	44004	40662	38035	36363	52088
shu jumladan tumanlar:												
Uchtepa	52481	1432	5332	5009	5126	5508	5287	4966	4707	4262	4360	6438
Bektemir	9344	167	865	855	964	1051	949	911	833	796	788	1165
Yunusobod	61916	1622	6050	6395	6597	6608	6392	6062	5530	5100	4804	6756
Mirzo Ulug'bek	54780	1114	5351	5404	5604	5740	5602	5359	5005	4600	4676	6325
Mirobod	28873	602	2849	2734	2883	3110	3235	3046	2575	2447	2130	3262
Shayxontohur	43122	1446	4375	4333	4473	4620	4305	3982	3671	3693	3269	4955
Olmazor	54889	1717	5847	6097	5640	5690	5340	5084	4907	4630	4183	5754
Sirg'ali	43625	946	4645	4453	4568	4804	4488	4060	3824	3463	3378	4996
Yakkasaroy	18995	447	1995	1961	1786	2155	1939	1800	1596	1565	1584	2167
Yashnobod	41817	942	4183	4273	4409	4569	4291	4020	3655	3475	3313	4687
Chilonzor	48958	1240	4786	5308	5066	5066	5008	4714	4359	4004	3878	5529

2019/2020 o'quv yili boshiga (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar va sinf o'quvchilarisiz) umumta'lim muassasalarida tahsil olayotgan 6 yoshli o'quvchilar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Olmazor tumanida qayd etilgan bo'lsa, eng kam ko'rsatkich Bektemir tumaniga to'g'ri kelgan.



Umumta'lim muassasalarida 11-sinfni bitirgan o'quvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi, kishi


(2019/2020 o'quv yili boshiga)



2019/2020 o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalarining 11-sinfini tamomlaganlar soni -14,4 ming nafarni tashkil etgan. Shahar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Yunusobod (2,1 ming nafar) va M.Ulug'bek(1,9 ming nafar) tumaniga to'g'ri keladi, Yakkasaroy (0,5 ming nafar) va Bektemir (0,3 ming nafar) tumanida eng kam ko'rsatkich qayd etilgan.



Umumta'lim muassasalari o'quvchilarining jins bo'yicha taqsimlanishi (2019/2020 o'quv yili boshiga)



2019/2020 o'quv yili boshiga, jami umumta'lim muassasalarida -462,9 ming nafar o'quvchilar (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar va sinf o'quvchilarsiz) ta'lim olayotgan bo'lib, ulardan -243,3 ming nafari (52,6%) o'g'il bolalar, 219,6 ming nafari (47,4%) qiz bolalarni tashkil etadi.

Umumta'lim muassasalarida xorijiy tillar

O'zbekiston Respublikasini rivojlangan mamlakatlar bilan har tomonlama manfaatli o'zaro hamkorligining yangi bosqichga ko'tarilishi jarayonida istiqbolli yoshlarni tayyorlash, yosh avlodga xorijiy tillarni, jumladan nemis va fransuz tillarini chuqur o'rganishlari uchun shart-sharoitlar yaratish va ularning intellektual salohiyatini oshirish, xalqaro maydonda yurtimizning nufuzini yanada yuksaltirishga qodir bo'lgan avlodni tarbiyalash asosiy maqsadimizdir. 2019/2020 o'quv yili boshida Toshkent shahrida 346 ta umumta'lim muassasalarida o'quvchilar xorijiy tillardan saboq oladi. Shulardan, 343 tasi ingliz tili, 13 tasi nemis tili, 19 tasi fransuz tili umumta'lim muassasalarida tahsil oladi.

Xorij tillarini o'rganish bo'yicha umumta'lim muassasalarining hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda

(2019/2020 o'quv yili boshiga)


	Umumta'lim muassasalari soni	Ulardan ta'lim olib boriladigan chet tillari bo'yicha:					
		ingliz	nemis	fransuz	koreys	arab	boshqalar
Toshkent sh.	346	343	13	19	5	2	4
<i>shu jumladan tumanlar:</i>							
Uchtepa	37	37	2	5	-	-	-
Bektemir	5	5	-	-	1	-	-
Yunusobod	47	46	2	2	-	-	-
Mirzo Ulug'bek	44	44	1	2	-	-	1
Mirobod	20	20	1	1	2	-	-
Shayxontohur	41	40	1	-	1	-	1
Olmazor	37	37	1	1	-	2	1
Sirg'ali	26	26	2	-	1	-	-
Yakkasaroy	21	22	3	4	-	-	1
Yashnobod	29	29	-	2	-	-	-
Chilonzor	37	37	-	2	-	1	-

Xorij tillarini o‘rganish bo‘yicha, umumta’lim muassasalari o‘quvchilarining tumanlar kesimida taqsimlanishi, birlik (2019/2020 o‘quv yili boshiga)

	Jami	Ulardan ta’lim olib boriladigan chet tillari bo‘yicha:					
		ingliz	nemis	fransuz	koreys	arab	boshqalar
Toshkent sh.	460970	448140	3512	5462	1611	159	2086
<i>shu jumladan tumanlar:</i>							
Uchtepa	53882	52635	223	1024	294	-	-
Bektemir	9344	9050	-	-	-	-	-
Yunusobod	61953	60168	147	1638	-	-	-
Mirzo Ulug‘bek	55004	53970	491	431	724	-	112
Mirobod	29381	26082	2334	241	365	-	-
Shayxontohur	43122	41206	69	-	-	-	1482
Olmazor	54889	53900	30	357	228	159	443
Sirg‘ali	43625	43289	108	-	-	-	-
Yakkasaroy	18995	18031	110	805	-	-	49
Yashnobod	41817	41742	-	75	-	-	-
Chilonzor	48958	48067	-	891	-	-	-


Ingiliz tilini o'rganish bo'yicha umumta'lim muassasalari o'quvchilarining tumanlar kesimida taqsimlanishi

(2019/2020 o'quv yili boshiga)



Shahrimiz umumta'lim muassasalarida 448,1 ming nafar o'quvchi ingliz tilini o'rganmoqda. Jumladan, Yashnobod tumanida -41,7 ming nafarni (99,8%), Olmazor tumanida - 53,9 ming nafarni (98,2%), Chilonzor tumanida -48,6 ming nafarni (98,2%) tashkil etgan bo'lsa, bu borada eng past ko'rsatkich Mirobod tumanida qayd etilgan, ya'ni 26,0 ming nafar (88,8%) o'quvchi ingliz tilini o'rganmoqda.

Umumta'lim muassasalarida bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni, birlikda




2019/2020 o'quv yili boshida umumta'lim muassasalarida jami o'qituvchilar soni 24,7 nafarni (o'rindoshlarsiz) tashkil etdi, Toshkent shahrida bitta o'qituvchiga (o'rindoshlarsiz) o'rtacha 19 nafar o'quvchi to'g'ri keladi. Shulardan tumanlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Bektemir, Mirobod, Olmazor va Yashnobod tumanlarida qayd etilib, unda bitta o'qituvchiga o'rtacha 20 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan bo'lsa, Yakkasaroy tumanida esa eng past ko'rsatkich ya'ni bitta o'qituvchiga o'rtacha 15 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan.



Umumta'lim muassasalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlanganligi bo'yicha dinamikasi, birlikda (2019/2020 o'quv yili boshiga)

	2017/2018	2018/2019	2019/2020
Kompyuter sinflariga ega bo'lgan muassasalar soni	312	318	331
Umumiy muassasalar soniga nisbatan % da	96,4	92,4	93,2
Kompyuter sinflari soni	424	432	474
ularda kompyuterlar soni, ming dona	6,4	6,7	7,1
"Har 1000 o'quvchiga to'g'ri keladigan kompyuterlar soni	17	15	15
"ZiyoNet"ga ulanish imkoniyati bo'lgan muassasalar soni	294	297	301



Toshkent shahrida 2019/2020 o'quv yili boshiga kompyuter sinflariga ega bo'lgan umumta'lim muassasalar soni 331 tani tashkil etgan bo'lib, bu jami umumta'lim muassasalarining 93,2 % ni tashkil etadi. Ular 7,1 ming dona kompyuterlar bilan ta'minlangan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,4 ming donaga oshgan.

Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

Tel: 71-203-88-27